
“ZO‘RAVONLIKKA QARSHI 16 KUN!” AKTSIYASI DAVOM ETMOQDA



Joylarda bo‘lgani kabi Qo‘sh tepa tumanida ham “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun!” aktsiyasi doirasidagi targ‘ibot tadbirlari davom etmoqda.

Navbatdagi tadbir targ‘ibot guruhi, oila va xotin-qizlar bo‘limi, Adliya bulimi hamda 4-sektor hududidagi mahalla xotin-kizlar faollari hamkorligida tumandagi BO‘SMda tashkil etildi.

Unda Xalqobod, Xo‘jaqishloq, Qorajiyda mahallalarida yashovchi xotin-qizlar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida xotin-qizlar o‘zlarini qiynayotgan ko‘plab savollarga javoblar olishdi, shuningdek sport musobaqalarida kuch sinashdi.

Musobaqada ayollar sportning shashka, stol tennisi, yugurish turlari bo‘yicha bellashdilar. Tadbir yakunida g‘oliblar tuman Mahalla xayriya jamoat fondi va targ‘ibot guruhining esdalik sovg‘alari bilan takdirlandilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-03 08:32:06